К вопросу о руководстве самостоятельной работой студентов при изучении иностранных языков	590
Рахимова Мухайё Акмаловна	

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING ESTETIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Umarova Gulshod Abdujabbarovna
Guliston davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta'lim kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim jarayoni va undan tashqari vaqtlarda estetik madaniyatini shakllantirish, ularni ijodiy faoliyatga o'rgatish, ularda ilk estetik dunyoqarash elementlarini shakllantirishning muhimligi, uni amalga oshirishning samarali usullari atroflicha yoritilgan.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni estetik tarbiyalash, ularni ijodiy faoliyatga o'rgatishning nazariy-pedagogik asoslari va uni amaliyotga tatbiq etish yuzasidan ishlab chiqilgan tashkiliy-metodik tavsiyalar ushbu sohada faoliyat olib borayotgan pedagog, tarbiyachi va metodistlar-o'qituvchilari uchun mo'ljallangan.

Kalit so'zlar: Ta'lim-tarbiya, maktabgacha ta'lim, maktabgacha yosh, maktabgacha ta'lim tashkiloti, estetik tarbiya, ijodiy faoliyat, dunyoqarash.

Abstract: This article comprehensively examines the formation of aesthetic culture among preschool children during educational activities and extracurricular time, the development of their creative abilities, and the importance of fostering the initial elements of an aesthetic worldview. Particular attention is given to effective methods and approaches for implementing aesthetic education in preschool settings.

The theoretical and pedagogical foundations of aesthetic education for preschool children, along with organizational and methodological recommendations developed for their practical implementation, are intended for educators, preschool teachers, and methodologists working in the field of early childhood education.

Key words: education and upbringing, preschool education, preschool age, preschool educational institution, aesthetic education, creative activity, worldview.

Аннотация: В статье подробно рассматриваются вопросы формирования эстетической культуры детей дошкольного возраста в образовательном процессе и во внеучебное время, развития их творческой деятельности, а также важность формирования первоначальных элементов эстетического мировоззрения. Особое внимание уделяется эффективным методам и средствам реализации эстетического воспитания детей дошкольного возраста.

Разработанные теоретико-педагогические основы эстетического воспитания дошкольников, обучения их творческой деятельности, а также организационно-методические рекомендации по внедрению данных подходов в практику предназначены для педагогов, воспитателей и методистов, работающих в сфере дошкольного образования.

Ключевые слова: образование и воспитание, дошкольное образование, дошкольный возраст, дошкольная образовательная организация, эстетическое воспитание, творческая деятельность, мировоззрение.

KIRISH

Respublikamizda maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularni maktabga tayyorlashda ijodiy va boshqa faoliyat turlariga jalb etish orqali ma'naviy, axloqiy va badiiy-estetik tarbiyalashning ilg'or pedagogik texnologiyalarini o'zlashtirish va amaliyotga tatbiq etish ushbu sohada olib borilayotgan davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Maktabgacha ta'lim muassasalarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", uni rivojlangan xorijiy mamalakatlar darajasiga olib chiqish sohasida qabul qilgan farmon va qarorlari, yangi davlat ta'lim va tarbiya xujjatlari, buyuk Sharq mutafakkir-olimlarining komil inson tarbiyasi, estetik tarbiyaga oid ta'limotlari, qarashlari va g'oyalari, o'zbek va jahon pedagog olimlarining maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularni badiiy-estetik tarbiyalash, ularda ijodiy qobiliyat, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish muammosi bilan bog'liq 'lgan tadqiqot ishlari ushbu yoshdagi bolalarni ijodiy faoliyatga o'rgatishning muhim vazifalarini tashkil etadi.



Ushbu sohada olib borilayotgan keng qamrovdagi davlat siyosati, O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari, "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim muassasalari davlat o'quv dasturi pedagogik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari va professor-o'qituvchilari, bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari zimmasiga muhim vazifalarni yuklamoqda.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning umumiy dunyoqarashi, atrofdagi olam haqidagi ilk tasavvur va tushunchalari, aql-idroki, tafakkur qilish qobiliyati, ijtimoiy-hissiy, ijodiy faoliyat kompetentsiyalari, estetik did va saviyalari kichik yosh davridanoq rivojlanishi uchun shart-sharoitlar qo'yiladi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi – har tomonlama etuk, barkamol shaxsni tarbiyalashda mavjud barcha imkoniyatlardan samarali foydalangan holda o'z zimmasida turgan yuksak vazifalarni bajarishga mas'uldir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ta'lim-tarbiya ishlarining takomillashib borishida Sharq va G'arb pedagoglarining muhim o'rni bor. Markaziy Osiyoning mashhur allomalaridan Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy kabi jahon tan olgan mutafakkirlar o'zlarining asarlarida ta'lim-tarbiyaga katta e'tibor qaratganlar.

Faylasuf olim Forobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida tarbiya orqali insonga beriladigan 12 fazilatni sharhlab beradi.

Abdulla Avloniy esa tarbiya haqida g'oyat ibratli fikrlarni bildiradi. "Pedagogika – Abdulla Avloniyning yozishicha, – bola tarbiyasining fani, demakdir". "Dars ila tarbiya ikkisi jon ila tan kabidir", "Dars oluvchi–biluvchi, tarbiya oluvchi–amal qiluvchidir". Bu erda pedagogika faniga qisqa va lo'nda ta'rif berib, ta'lim bilan tarbiyani esa jon bilan tanga o'xshatib, ularni bir-biridan ajratib tushunish mumkin emasligini yorqin ifodalab bergan. Avloniyning ta'kidlashicha, tarbiyani yoshlikdan berish nihoyatda zarur. Bolaga avvalo, kichik yoshdan boshlab, ota-ona tarbiya beradi, keyin tarbiya bilan butun jamoatchilik shug'ullanadi, chunki bunda inson taqdiri hal etiladi deydi.^[3]

Bu sohada Sharq va G'arb xalqlari yaratgan og'zaki ijodiyot, buyuk mutafakkir, pedagog va olimlarning ta'lim-tarbiyaga doir ilg'or fikrlarini o'rganib, tahlil qilib, barkamol insonni tarbiyalash jarayonini o'rganish biz uchun juda qimmatlidir:

- ta'lim-tarbiya to'g'risidagi qonun-qoida tamoyil, metod va usullarni bolalar bog'chalarining amaliy hayoti bilan bog'lab, bo'lajak tarbiyachi – o'qituvchilarga o'rgatish hamda xalq ta'limini boshqarish va rahbarlik masalalarini chuqur o'rganib, bo'lajak tarbiyachilarni qanday tayyorlash muammolarini hal qilish;
- maktabgacha tarbiya muassasalarida oila bilan uzviy hamkorlikda bolalarni har tomonlama rivojlantirish ishini amalga oshirish.

Bunday vazifalarda tadqiq etish:

- *birinchidan*, bolalar sog'lig'ini saqlaydi va mustahkamlaydi, jismoniy rivojlanishini ta'minlaydi;
- *ikkinchidan*, ilmga qiziqish va qobiliyatlarini rivojl antiradi;
- *uchinchidan*, Vatanga, tabiatga, jonajon o'lkaga muhabbat, kattalarga hurmatni, o'rtoqlik va jamoatchilik, xayrixohlik, xulq madaniyati, mustaqillik, uyushqoqlik va intizom, mehnatsevarlik kabi ijobiy fazilatlarini tarbiyalaydi;
- *to'rtinchidan*, estetik tarbiyani amalga oshiradi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ta'lim berish tizimi pedagogikada ilk bor chex pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592–1670) tomonidan yaratilgan. Ya.A. Komenskiy 6 yoshgacha bo'lgan bolalarga ta'lim va tarbiya berish mumkinligini ko'rsatib berdi. Shu bilan Ya.A. Komenskiy maktabgacha tarbiya pedagogikasining mustaqil fan sifatida shakllanishiga asos soldi.^[4]

Shveysar pedagogi I.G. Pestalotssi (1746– 1827) maktabgacha tarbiya didaktikasini tuzishda maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni rivojlantirish masalasiga katta e'tibor beradi. G. Pestalotssi tomonidan ishlab chiqilgan ta'limning asosiy mazmuni maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishda va bolalarga keyinchalik maktabda sistemali ta'lim berishda asosiy dastur bo'lib xizmat qildi.^[5]

Hozirgi zamon maktabgacha ta'lim nazariyasini yaratishda A.P.Usovaning xizmatlari katta ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda maktabgacha yoshdagi bolalarni estetik jihatdan tarbiyalash jarayonini o'rganishda kompleks yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot davomida nazariy va amaliy metodlar uyg'un holda qo'llanildi. Nazariy tahlil usuli orqali mavzuga oid pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlar o'rganilib, ilmiy xulosalar

chiqarildi. Amaliy qismda esa kuzatish, suhbat va so'rovnoma metodlari yordamida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiya jarayoni tahlil qilindi. Shuningdek, tajriba-sinov ishlari tashkil etilib, unda estetik tarbiyaga asoslangan mashg'ulotlarning samaradorligi aniqlandi. Tadqiqot jarayonida taqqoslash va umumlashtirish metodlari orqali olingan natijalar tahlil etildi. Statistik tahlil yordamida tajriba natijalarining ishonchliligi asoslab berildi. Olingan ma'lumotlar asosida ilmiy-amaliy xulosalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning asarlari, maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun ishlab chiqarilgan davlat talablari, O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarga samarali ta'lim-tarbiya berish maqsadida Maktabgacha ta'lim va tarbiya Davlat standartlari, "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim tashkilotlari davlat o'quv dasturi ishlab chiqilgan me'yoriy-huquqiy hujjat hisoblanadi. Ushbu davlat xujjatida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining maqsad va vazifalari, o'quv-tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning zamonaviy shakl, vosita va metodlari o'z ifodasini topgan. Unda maktabgacha yoshdagi bolalarni ta'limning keyingi bosqichi – maktabga tayyorlashning asosiy soha kompetentsiyalari belgilab berilgan.

"Ilk qadam" davlat o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlari doirasida qo'llash uchun majburiy hisoblanadi:

- davlat maktabgacha ta'lim muassasasi; maktabgacha ta'lim sohasida xizmat ko'rsatuvchi nodavlat muassasasi;
- maktabgacha yoshdagi bolalar guruhlariga ega bo'lgan "Mehribonlik" bolalar uylari;
- maktabgacha va boshlang'ich ta'limni nazorat qiluvchi boshqaruv organlari.

Bugungi kunda barcha turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarining asosiy maqsad va vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- bolaning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standarti asosida hamda MTM davlat o'quv dasturiga muvofiq uning har tomonlama va barkamol rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarning o'quv-tarbiyaviy faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish;
- bolalarning ilk rivojlanishi masalalarida ota-onalar va jamiyatga tegishli bilimlar berishni tashkil etish va amalga oshirish;
- bolalarning ilk rivojlanishi masalalarida oila va jamiyat bilan o'zaro hamkorlikni tashkil qilish va amalga oshirish.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim va tarbiya jarayonining asosiy maqsadi – bolalarda umumiy asosiy kompetentsiyalar va rivojlanish sohalari kompetentsiyalarini shakllantirish uchun tegishli shart-sharoitlarni yaratishdan iborat.

Sohaga doir davlat xujjatlarida maktabgacha ta'lim va tarbiya jarayonini quyidagi tamoyillarga tayangan holda tashkil etish talab etiladi:

- bola huquqlari, o'ziga xos rivojlanish xususiyatlari va salohiyatlarini hisobga olish;
- ta'lim jarayonida barcha turdagi rivojlanish sohasining o'zaro bog'liqligi;
- bola salomatligini asrash va mustahkamlash, uning ehtiyojlari, shu jumladan, uning harakatlanish ehtiyojlarini qondirish;
- bolaning ijodiy qobiliyatlarini qo'llab-quvvatlash;
- o'yin orqali ta'lim berish va rivojlantirish;
- bolaning rivojlanishi va ijtimoiy moslashishi uchun qulay muhit yaratish;
- bola uchun xavfsiz muhitni ta'minlash;
- MTTning oila, mahalla va maktab bilan hamkorligi;
- milliy madaniy an'analar qadriyatini oshirish va boshqa millatlar madaniyatiga hurmat, boshqa millatlar madaniyatining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish.

Davlat o'quv dasturida bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash uchun maktabgacha ta'lim tashkiloti ota-onalar bilan o'zaro hamkorlik ishlarini quyidagi shakllarda tashkil etishi tavsiya etiladi:

- ota-onalarning maktabgacha ta'lim tashkiloti borasidagi fikrlarini hisobga olish;
- ilk rivojlanish masalalarida ota-onalarga bilim berish;
- ota-onalarni o'quv-tarbiyaviy jarayonda faol qatnashishga jalb etish;
- ota-onalarning muassasa hayotida ishtirok etish borasidagi tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash.



Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda kompetentsiyaviy yondashuv o'sib borayotgan bola shaxsini hayotga tayyorlash, unda hayotiy muhim masalalarni hal qilish uchun zarur bo'lgan, axloqiy me'yor va qadriyatlarni o'zlashtirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, "Men" obrazini qurish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat usullarini shakllantirishga tayyorgarlikni ko'zda tutadi.

Boshlang'ich muhim kompetensiyalar bolaning faoliyat va axloq sub'ekti sifatidagi yaxlit rivojlanishini talab etadi.

Kompetensiya – bolaning bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlari majmuidir. Boshlang'ich kompetensiyalar, rivojlanish sohasidan qat'iy nazar, bola shaxsi shakllanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Maktabgacha yoshdagi 6-7 yoshli bolalarning umumiy muhim kompetensiyalariga quyidagilar kiradi:

1. Kommunikativ kompetensiya – muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko'nikmasi.
2. O'yin kompetensiyasi – bolaning o'yin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va ko'nikmalardan ijodiy foydalanishi o'quv-tarbiyaviy jarayon uchun asos hisoblanadi.
3. Ijtimoiy kompetensiya – hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda axloq qoidalari va me'yorlariga rioya qilgan holda o'zini tuta olish mahorati.
4. Bilish kompetensiyasi – atrofdagi olamni ongli ravishda idrok qilish va olingan bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlardan o'quv va amaliy vazifalarni hal qilish uchun foydalanish.

Bolaning kompetensiyalari bola rivojlanishining quyidagi sohalarida belgilanadi:

- jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi;
 - ijtimoiy-hissiy rivojlanish;
 - nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari;
 - bilish jarayonining rivojlanishi;
 - ijodiy rivojlanish.
1. Bolaning jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish sohasidagi kompetensiyalari quyidagilarni o'z ichiga oladi.

"Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi" sohasidagi o'quv-tarbiyaviy faoliyat yakunlanganidan so'ng 6-7 yoshli bola:

- o'z imkoniyatlari va yoshi bilan bog'liq jismoniy rivojlanish me'yorlariga mos ravishda jismoniy faollik ko'rsatadi;
- turli harakatchanlik faolligini uyg'un ravishda va maqsadli bajarishni biladi;
- turli hayotiy va o'quv vaziyatlarida mayda motorika ko'nikmalaridan foydalanadi;
- o'z harakatlarini hissiyot va sezgi organlari yordamida boshqaradi;
- shaxsiy gigiena malakalarini qo'llaydi;
- sog'lom turmush tarzi va ovqatlanish asoslarini biladi;
- xavfsiz hayotiy faoliyat asoslari qoidalariga rioya qiladi.

2. Bolaning ijtimoiy-hissiy rivojlanish sohasidagi kompetensiyalari quyidagilarni o'z ichiga oladi.

"Ijtimoiy-hissiy rivojlanish" sohasidagi o'quv-tarbiyaviy faoliyat yakuniga etganidan so'ng 6-7 yoshli bola:

o'z "Men"i va boshqa insonlarning hayotiy faoliyat muhitidagi roli to'g'risida tasavvurga ega bo'ladi;
 o'z hissiyotlarini boshqaradi va ularni vaziyatga mos ravishda ifodalaydi;
 o'zgalarning hissiyotlarini farqlaydi va ularga mos ravishda javob beradi;
 kattalar va tengdoshlar bilan vaziyatga mos ravishda muloqot qiladi;
 murakkab vaziyatlardan konstruktiv chiqish yo'llarini topadi.

3. Bolaning nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari sohasidagi kompetensiyalari quyidagilarni o'z ichiga oladi.

"Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari" sohasidagi o'quv-tarbiyaviy faoliyat yakuniga etganidan so'ng 6-7 yoshli bola:

- nutqni eshitadi va tushunadi;
- o'z nutqida to'g'ri talaffuz, qulay grammatik shakllar va xilma-xil gap konstruksiyalaridan foydalanadi;

- ikkinchi tilni o'rganishga qiziqish namoyon qiladi;
 - ikkinchi tilni egallash bo'yicha dastlabki bilimlarini ko'rsatadi;
 - badiiy adabiyot asarlariga qiziqish namoyon qiladi;
 - so'zning lug'aviy, bo'g'inli va fonetik tuzilishi to'g'risida tasavvurga ega bo'ladi;
 - turli ma'no shakllarini mustaqil ravishda tuzish va so'zlab berishni biladi;
 - yozishning dastlabki malakalari va vositalaridan foydalanishni biladi.
4. Bolaning bilish jarayonining rivojlanishi sohasidagi kompetentsiyalari quyidagilarni o'z ichiga oladi.

Bilish jarayonining rivojlanishi sohasidagi o'quv-tarbiyaviy faoliyat yakuniga etganidan so'ng 6-7 yoshli bola:

- bilim olishga faol qiziqishni namoyon etadi;
- o'quv va hayotiy faoliyat uchun axborotni mustaqil ravishda topadi va undan foydalanadi;
- predmetlar, voqealar va ko'rinishlar o'rtasidagi oddiy aloqalarni tushunadi va ularni yaxlit bir butunlik sifatida idrok qiladi;
- raqamlar, hisob-kitobni biladi va ularni hayotda qo'llaydi;
- makon, shakl va vaqtga mos ravishda ish tutadi;
- elementar matematik hisoblashlarni amalga oshiradi;
- atrof-muhitdagi voqea-hodisalar va ko'rinishlarni kuzatadi hamda tadqiq qiladi;
- atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorona va g'amxo'r munosabatni namoyon etadi.

5. Bolaning ijodiy rivojlanish sohasidagi kompetentsiyalari quyidagilarni o'z ichiga oladi.

"Ijodiy rivojlanish" sohasidagi o'quv-tarbiyaviy faoliyat yakuniga etganidan so'ng 6-7 yoshli bola:

- san'at va madaniyatga qiziqishni namoyon qiladi;
- milliy an'analarni qadrlaydi va ularni kundalik hayotining bir qismi sifatida idrok etadi;
- san'atning muayyan turini afzal ko'rishini mustaqil ravishda ifodalaydi;
- olingan bilim va ko'nikmalardan turli hayotiy vaziyatlarda o'z ijodiy rejalarini tuzish va tatbiq qilish uchun foydalanadi;
- insonning dunyoni o'zgartirishdagi yaratuvchanlik rolini tushunadi.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya jarayonida bola rivojlanishining har bir soha kompetentsiyalarini shakllantirish interaktiv yondashuv asosida, ular o'rtasida o'zaro aloqadorlik o'rnatilgan holda amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan keng qamrovdagi islohatlar, uning mazmuni, ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish shakl, vosita va metodlari, bolaning rivojlanish soha kompetentsiyalariga qo'yilayotgan davlat talablari bo'lajak pedagog kadrlar va tarbiyachilar zimmasiga mas'uliyatli vazifalarni yuklamoqda.

Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarini yetuk malakali va raqobatbardosh kadrlar bilan ta'minlash oliy ta'lim muassasalari oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Mamlakatimizning ko'plab oliy o'quv yurtlarida maktabgacha bakalavr ta'lim yo'nalishi bo'yicha malakali pedagog kadrlar tayyorlash ishlari tashkil etilgan. Bo'lajak tarbiyachilarni maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularni faoliyat sohalari bo'yicha maktabga tayyorlash bilan bog'liq bo'lgan zamonaviy pedagogik bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish davr talabidir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning umumiy dunyoqarashi, atrof-dagi olam haqidagi ilk tasavvur va tushunchalari, aql-idroki, tafakkur qilish qobiliyati, ijtimoiy-hissiy, ijodiy faoliyat kompetentsiyalari, badiiy-es-tetik did va saviyalari kichik yosh davridanoq rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratiladi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi – har tomonlama yetuk, barkamol shaxsni tarbiyalashda mavjud barcha imkoniyatlardan samarali foydalangan holda o'z zimmasida turgan yuksak vazifalarni bajarishga mas'uldir.



Psixologik nuqtai nazardan maktabgacha yoshidagi bolalar – o‘yin, raqs tushish, qo‘shiq kuylash, rasm chizish, she‘r, ertak, hikoya aytish, chiroyli narsalar yasash, ya‘ni, badiiy-ijodiy, estetik faoliyat bilan shug‘ullanishni xush ko‘radilar. Bolalar borliqni, olamni o‘yin, badiiy faoliyat turlari orqali anglab yetadilar. Bolalarni badiiy-estetik tarbiyalash ishlarini bugungi kun talablari darajasida tashkil etish ko‘p jihatdan pedagog kadrlarning salohiyati va kasbiy mahoratiga bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. F.R.Qodirova, Sh.Q.Toshpo‘latova, N.M.Kayumova, M.N.A‘zamova Maktabgacha pedagogika “Tafakkur” Nashriyoti Toshkent – 2019
2. Polat E.S. Ta‘lim tizimidagi zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari - M .: “Akademiya” nashriyot markazi, 2008 y.
3. Umarova, G. (2024). Methodology for the development of artistic and aesthetic education of preschool children. *Modern Science and Research*, 3(2), 913-918.
4. O‘zbekiston respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari. – T., 2018.
5. Umarova, G. (2023). Preparing students of preschool education to develop their artistic and aesthetic abilities on the basis of art education in children. *Modern Science and Research*, 2(12), 229-232.
6. Umarova, G. (2023). Enhancing methodology for preparing preschool students for artistic and aesthetic education. *Евразийский журнал академических исследований*, 3(12 Part 2), 49-52.
7. Umarova, G. A. (2022). Formation of aesthetic culture of preschool children. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(6), 552-558.
8. Ergashev, R. N., Umarova, G. A., Tayloqova, G. M., Eshonkulova, M. K., Mamirova Z.U. (2021). Formation of professional competence in future lecturers. 48(12).
9. Umarova G. Maktabgacha yoshdagi bolalarni estetik tarbiyalashda innovatsion texnologiyalardan foydalanish. Proceedings of the international scientificpractical conference on “actual problems of digital and innovative technologies in the continuing education systems”, 2024.
10. G.Umarova. Maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy- estetik tarbiyalash. 152-155-bet. “Guliston davlat universiteti axborotnomasi” ilmiy jurnalining 2023 yil № 2.
11. G.Umarova. Maktabgacha yoshdagi bolalarda badiiy estetik tarbiyani rivojlantirishning pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish. 425-431-bet. Maktabgacha va maktab ta‘limi. Pedagogik, psixometodologik va tabiiy fanlarga ixtisoslashgan ilmiy jurnali. 2025-yil, aprel, 4-son.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.